



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI PREZIDENTINING
BUYRUG‘I**

2024-yil 10- may

20 - 49-son

Toshkent shahri

Xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zRQ-684-son Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-son Farmoniga asosan

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ishlar boshqarmasi uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xarid qilinishini ta‘minlash bo‘yicha ilovaga muvofiq Fanlar akademiyasining xarid komissiyasi tuzilsin.

2. Xarid komissiyasi (B.N. Kadirov) davlat xaridlarini amalga oshirishda belgilangan tartib-taomillarga qat‘iy rioya etgan holda tashkil etsin va o‘tkazilishini ta‘minlasin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy tashkilotlari, muassasalari va mintaqaviy bo‘limlari rahbarlari ushbu buyruq talablaridan kelib chiqib, xarid komissiya tarkibini tasdiqlash (qayta tasdiqlash) choralarini ko‘rsin.

4. Belgilansinki:

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida davlat xaridlari doirasida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishga Fanlar akademiyasi Ishlar boshqarmasi mas‘ul etib belgilansin;

shartnoma imzolangandan so‘ng etkazib berilayotgan tovarlarni (ishlar, xizmatlar) qabul qilib olishga shaxsan tashabbuskor tarkibiy tuzilma mas‘ul hisoblanib, bunda, tashabbuskor tarkibiy tuzilma tovarlarni (ishlar, xizmatlar) qabul qilishni rad etgan taqdirda, bu to‘g‘risida zudlik bilan Fanlar akademiyasi Ishlar boshqarmasi (qabul qilishni rad etish dalolatnomasini ilova qilgan holda) xabardor etilishini ta‘minlasin.

5. Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishning qonuniyligini ta‘minlash xarid komissiyasi zimmasiga yuklatilsin

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vitse-prezident S.Z.Mirzayev zimmasiga yuklatilsin.

O‘zR FA prezidenti v.v.b.



S.Z.Mirzayev